LINGVOKULTUROLOGIYA VA UNING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI HAMDA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Sabirova Nilufar Komiljonovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishi hisoblangan lingvokulturologiya haqida mulohazalar yuritilgan. Lingvokulturologiyaning o‘rganish sohasi haqida tahlillar berilgan. Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til hamda madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi.
Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, sistema,, madaniyat, til, lingvokulturologiya ning yo‘nalishlari va atamasi, madaniyat, tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot, nutq, til, lingvokulturologiya, lingvomadaniyat.

Lingvokulturologiya - tilshunoslik va madaniyatshunoslikning o‘zaro bog‘liqliklaridan paydo bo‘lgan fan bo'lib, u xalq madaniyatining paydo bo‘lishini tilda ifodalanishi va mujassamlanishini tadqiq etadi. Bu ikki yo‘nalishni, ya’ni tilshunoslik va madaniyatshunoslik o‘zaro bog‘lanishi oddiy bog‘lanish emas, balki bu yangi ilmiy asoslangan yo‘nalishning vujudga kelishidir. Shuning uchun bu hodisa tilshunoslik va madaniyatshunoslikning vaqtincha bog‘lanishi bo‘lmasdan, u fanning sistemalashgan tarmog‘i bo‘lib o‘zining mustaqil maqsad, vazifa, metod va tadqiqot obyektiga ega bo‘lgan fandir[4].

Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bir tomondan lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o'rni, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o‘rnini o‘rganadi.

Lingvokulturologiya o‘rganish obyektiga ko‘ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o‘rganish obyektiga bo‘lgan yondashuviga ko‘ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo‘lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog‘liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o'rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o‘ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug‘ullanadi [2].

Shunday qilib, lingvokulturologiyani fanning maxsus tarmog‘i sifatida shakllanishi XX asming 90-yillariga to‘g‘ri keladi.

Lingvokulturologiyaning rivojlanish davri ikki turga bo'linadi: birinchi davr bu V.Gumboldt, A.A.Potebnya, E.Sepir va boshqa olimlar ishlarning rivojlanish davri, ikkinchi davr esa lingvokulturologiyani mustaqil o'rganish tarmog‘i sifatida shakllanishidir. Fanning rivojlanish dinamikasi yana bir davr, ya’ni uchinchi davrni kuzatishni taqazo etadi, bu lingvokulturologiyani fundamental fan sifatida paydo bo'lishidir.

Barcha tillarda bo‘lgani kabi o‘zbek va ispan tillarida ham millat madaniyati til birikmalari va frazeologizmlarida o‘z aksini topadi. Misol sifatida ushbu tillarda ishlatiladigan murojaat so‘zlarni keltirish mumkin. Ispanlar suhbatida señor, señora, señorita, don, doña kabi so‘zlar yoki kishining yoshidan qat’i nazar uning ismi bilan chaqirilishi mumkin bo‘lsa, o‘zbek tili nutqida ko‘proq kishi ismidan keyin aka, opa, amah, xola, kelinoyi, bobo kabi so‘zlar ishlatilib, notanish kishilar bilan suhbatda esa ushbu keltirilgan so‘zlardan tashqari uka, singil, o‘g‘lim, qizim, opoqi kabi so‘zlar qo‘llaniladi.

Ma’lumki, madaniyat tildagi frazeologizmlarda so‘zlardagidan ko‘ra yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Misol sifatida, ingliz va o‘zbek tillaridagi hudud va kishi nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklarni keltirish mumkin. Masalan, ingliz tilida foydasiz ishga nisbatan Carry coals to Newcastle (Nyukasl - Angliya ko 'mir sanoati markazi), ayyorlikni ifodalashda Cokel Yorkshire over (Yorkshir aholisi ayyorligi bilan Angliyada mashhur) frazeologik birliklari hudud nomi bilan bog'liq bo'lsa, juda ilgari paytda bo'lgan voqeaga nisbatan ishlatiladigan When queen Anne was alive, ilojsiz tanlovga nisbatan Hobson’s choise kabi iboralar kishi nomlari bilan bog'liq bo‘lib ingliz madaniyatini o‘zida aks ettiradi.

O'zbek tilidagi frazeologizmlarda ham shu kabi holat kuzatiladi. Misol tariqasida Bog‘dodda hammayoq tinch, so‘rab-so‘rab Makkani topsa bo‘ladi, Xo‘ja ko'rsincha, Alixo'ja-Xojaali, Alpomishdek yigit, Barchinoydek go'zal kabi frazeologik birliklar o'zida o'zbek madaniyatini aks ettirishini ko'rsatish mumkin.

Demak, har bir millat o'z tili va madaniyatiga ega bo'lib, madaniyat tilda turli til birliklari (leksemalar, frazeologik birliklar)da o‘z aksini topishi til va madaniyatning bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi.

Janubda yashovchi xalqlar madaniyatida oy alohida e'tirof bilan tilga olinadi. Ruslar ongida u qorong‘ulik, oxirat bilan bog‘lanib, ba’zida hayot va mamot bilan (жить “под луной”, “в подлуном мире” - hammaning hayoti birdek sharoitda kichadi) tasavvur qilinsa, oy nuri boshqa slavyanlarda homilador hamda norasidalar uchun xavfli, ziyon keltiradigan hodisaga taqqoslanadi. Vyetnamliklarda esa boshqa Janubiy Osiyo xalqlaridagi kabi oyga munosabat tamoman boshqacha, ya’ni ular oy kalendari bo‘yicha yashashadi, maxsus nishonlanadigan Oy bayrami bolalarning sevimli bayrami hisoblanadi. Go‘zal, nozik va beg‘ubor yosh qizlar oyga o‘xshatiladi, sevishganlar oy yog‘dusida gurunglashib, unga bag‘ishlab she’rlar to‘qishadi va qo‘shiqlar aytishadi. Shuning uchun Vyetnam xalqi hayotidagi barcha ezguliklarni oy orqali tasavvur etadilar.

Shu kabi oyga munosabat o‘zbek xalqiga ham mansub ekanligini alohida ta’kidlash lozim. Chunki o‘zbeklarda oy quyoshdan nur olib, yog‘du sochuvchi samoviy jismgina emas (“oyni etak bilan yopib bo'lmaydi” - maqol), balki “go‘zal, chiroyli yuz” (“oy yuzing qora chimmat zulmidan qutiltirg‘il”. “Juda go‘zal, juda ham chiroyli” (“Oy desa oyga, kun desa kunga o‘xshaydi”), safarga ketayotgan kimsaga yaxshilik tilash (“Oy borib omon qayt”) ma’nolarida ishlatiladi. Shuni aytib o'tish joizki, rus xalqida ham “лицо, как луна” iborasi go‘zallikka tan berishni anglatadi.

Bunga o‘xshagan misollarni boshqa xalqlar madaniyatida ham ko‘plab uchratish mumkin.

Turli xalqlar madaniyatida mavjud yuqorida keltirilgan o‘ziga xosliklarning tilda aks ettirilishini o‘rganish lingvokulturologiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Lingvokulturologiya tilshunoslikning yosh, yangi sohasi bo‘lsa-da, biroq unda frazeologik, konseptologik, leksikografik va lingvodidaktik yo'nalishlar shakllanib ulgurgan.
Mazkur fanning asosiy vazifasi - til bilan madaniyatning bog‘liq tomonini, ya’ni madaniyatga oid tushunchalarning tilda va uning turli vositalarida ifodalanish usullarini o‘rganish, til va xalq mentaliteti o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tavsiflashdan iborat. O‘zbekistondagi bir qator olimlar, xususan, A.Abduazizov, D.Ashurova, Sh.Safarov, O‘.Yusupov, A.Mamatov va boshqa tadqiqotchilar lingvokulturologiya sohasiga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqdalar.
Lingvokulturologiya - madaniyat va tilning qo'llanish jarayoni maqomidagi o‘zaro ta’sirlashuvlarni o‘rganuvchi fandir. Lingvokulturologik tadqiqotlar sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa shunga yaqin sohalararo miqyosda olib boriladi.

Professor D.Ashurova fikricha, lingvokulturologiyaning eng muhim vazifalaridan biri - metodologik shrt-sharoitlarni aniqlashtirish, tadqiqotlarning konseptual qonun-qoidalari hamda madaniyat nuqtayi nazaridan ajratib olingan til birliklarini (lingvokulturemalar) tizimiga solish va tasniflash muammolarini ishlab chiqish hisoblanadi.

“Lingvokulturologiya” atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N.Teliya va V.V.Vorobyov, V.A.Maslova va boshqalarning ishlarida ko‘rindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldtga borib taqalishini ta’kidlaydilar [3]. Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbiskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o'ynaganligi ta’kidlanadi [4]. Ana shu g‘oyalar asosida ming yillarda chet elda yangi fan - lingvokulturologiya vujudga keldi va XX asrning 90-yillarida maxsus soha sifatida shakllandi.

Lingvokulturologiya bugungi kunda bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Lingvokulturologiya yorqin madaniy aloqalarni, lingvomadaniy holatlarni, aniq ilmiy izlanishlarni o‘z ichiga oladigan alohida sotsial guruh.

2. Diaxronik lingvokulturologiya. Lingvomadaniyatning etnos holatidagi aniq o'tish vaqtining o'zgarishlarini o‘rganadi.

3. Qiyosiy lingvokulturologiya. Lingvomadaniyatda paydo bo'ladigan turli xil etnoslarning ikki tomonlama qiyoslash bilan shug‘ullandi.

4. Tavsifiy lingvokuturologiya. Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar barmoq bilan sanarli. Ular orasida M.K.Golovanivskaning “Rus tilida so'zlashuvchilar nuqtai nazarida fransuz mentaliteti” nomli ishi katta ahamiyatga ega. Ishning obyekti sifatida rus va fransuz tillaridagi abstrakt tushunchalar: taqdir, xavf, omad, qalb, ong, tafakkur, g‘oya va boshqalar olingan.

5. Lingvokulturologik leksikografiya. Lingvoo‘lkashunoslik lug‘atlarini tuzish bilan shug‘ullanadi. Llingvokulturologiyaning bu yo‘nalishi hozirgi kunda boshqa yo'nalishlarga qaraganda jadal rivojlanib bormoqda. Fikrimizning dalili sifatida D.G.Maltsevaning lingvoo'lkashunoslik lug'atini keltirishimiz mumkin. Bu lug'at 25 bobdan iborat. Unda Germaniya realiyalarida ifodalanuvchi til birliklari, iqlim xususiyatlari, hayvonot va o'simlik dunyosi, mamlakatlar tarixi, qadimiy urf-odatlar, an’analar; qadimiy afsonalar, son va rangni ifodalovchi simvollar; to‘y, marosimlar, bayramlar; diniy marosimlar; valyuta tizimining rivojlanishi; uzunlik, og‘irlik, hajm, yuza; savdo-sotiq ishlari, fan, texnika, tibbiyot; pochta xizmati, shaharlar qurilishi va arxitektura tarixi kabilar obyekt sifatida olingan. Shuningdek, lug‘atda berilgan ma’lumotlar ichidan til, kitobatchilik, hattotlik san’ati, talaba va talabalar hayoti, maktab, milliy kiyimkechak spetsifik elementlari, milliy taomlar, milliy o‘yinlar, milliy raqslar, an’anaviy ko'rishish usullari va tilaklar, etiketga xos jumlalar, shaxsiy ism va familiyalar, milliy imo-ishoralar, badiiy ijod namunalari, aforizm, milliy xarakter kasb etuvchi olmon qo'shiqlari joy olgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XIX asrda V.Gumboldtning til va tafakkur munosabatlarini o‘rganishda millat madaniyatiga asosiy e’tibor berilishi lozimligi haqidagi mulohazalarni XX asrning 90-yillarida qator tilshunoslar tomonidan yangi fan yuzaga kelishiga sabab bo'lib, ushbu fan hozirgi zamon tilshunosligida o‘ta tez sur’atlarda rivojlanib, umumiy tilshunoslikdan alohida o‘rin egalladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Абдураимовна, Ш. М. (2019). Вопросы изучение фразеологических единиц в современной русской прозе. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития, 105-108.

2.Qurbonova, M. (2020). Methods for improvement of training competitions for classifications leading on the organization of independent works. Экономика и социум, (6), 240-244.

3.V.Gumboldtning til va shaxs haqidagi fikrlari to'g'risida qarang: Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A.Tanlangan asarlar.2- jildlik.- Toshkent: Akademnashr, 2012.
4.Shayxislamov, N. Z. O. G. L. (2020). TIL KORPUSI YARATISHNING UMUMIY TAMOYILLARI XUSUSIDA. Science and Education, ^(Special Issue 3).
5. Шукурова, М. А. (2020). СВЯЗЬ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КУЛЬТУРОЙ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО НАРОДОВ. Science and Education, ^(Special Issue 3), 204-211.
6. Курбонова, М. Ф. (2020). Ёшларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг педагогик асослари. Халц таълими, 3.
7. Трубецкий Н.С. Поведения и мышления к языку. - М.,1960.
8.Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. - М.,1987.
9.Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. - М.,1987.

UniPublish
CONFERENCE PROCEEDINGS
POST. INDEX. IMPACT.